

QADIMGI HINDISTON SIVILIZATSIYASI

Toirova Gulbegim Toshnazar qizi, Turopova Yoqutxon Botir qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti ijtimoiy fanlar fakulteti tarix yoʻnalishi 1.24-guruh talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada qadimgi Hindiston sivilizatsiyalarning madaniyati dini aholis vai tabiiy sharoiti haqida adabiyotlarni oʻrganib chiqqan holda maʼlumotlar berishga harakat qilingan. Bu maqolada hind sivilizatsiyasidagi ilk shaharlar haqida ham maʼlumotlar kiritishga harakat qilingan. Qadimgi Hindistonning shaharlari haqida muhim maʼlumotlar va rivojlanishi tarixi ham yoritib beriladi.

KALIT SOʻZLAR: Moxenjodaro Xarappa buddizm Gang guptalar Chandragupti Ashoka Maurya Jaynizm Sidharta Gautama

АННОТАЦИЯ: В данной статье предпринята попытка предоставить информацию о культуре, религии, населении и природных условиях древнеиндийских цивилизаций. Также будет освещена важная информация о городах древней Индии и истории их развития.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Мохенджодаро, Хараппа, буддизм, банда Гуптас Чандрагупти, Ашока Маурья, джайнизм, Сиддхартха Гаутама.

ANNOTATION: In this article, an attempt was made to provide information about the culture, religious population or natural conditions of Indian civilizations by studying the literature. Important information and history of the cities of ancient India will also be covered.

KEY WORDS: Mohenjodaro Harappa Buddhism Gang Guptas Chandragupti Ashoka Maurya Jainism Siddhartha Gautama.

Kirish: Hindiston mamlakati shu nomdagi yarimorol hamda Osiyo qitʼasining Hind va Gang daryolari vodiylarining bir qismini egallagan. Iqlimining issiqligi va keng yoyilib oqadigan daryolar suv bilan birga serunum loyqani oqizib kelishi dehqonchilik vujudga kelishi va rivoj topishi uchun imkoniyat yaratdi. Himolay togʻlari shimoli-sharqdan dushmanlar va sovuq shamollar tajovuzidan oʻziga xos tabiiy «mudofaa devori» boʻlib xizmat qilgan. Gang vodiysidagi tropik oʻrmonlar ulkan daraxtlar va rang-barang oʻsimliklarga boy boʻlgan. Mil. avv. 3-ming yillikda Hind daryosi vodiysida katta shaharlar vujudga kela boshladi. Moxenjodaro va Xarappa shaharlari Hind daryosi havzasining eng yirik shaharlari edi. Ikkala shahar ham mustahkam mudofaa devorlari bilan himoyalangan. Koʻchalar bilan biri-biridan ajratilgan mavzelerdan pishiq va xom gʻishtdan qurilgan binolar (turar joylar, omborxonalar, saroy va ibodatxonalar) topilgan. Katta va chiroyli shahar – Moxenjodaroda mohir hunarmandlar koʻp boʻlgan. Aholisining asosiy mashgʻuloti dehqonchilik edi. Dehqonlar shakarqamish, paxta oʻsimliklarini yetishtirgan, fillarni qoʻlga oʻrgatishgan. Biroq miloddan avvalgi XVIII asrdan Hind daryosi vodiysi shaharlari tez-tez roʻy beruvchi toshqinlar, oʻrmonlar va changalzorlar kengayishi natijasida zavolga yuz tutib, butunlay vayronaga aylanadi.[1]

Adabiyotlar tahlili: Ushbu mavzuni yoritishda Hindistonning faoliyatiga va ijtimoiy mavqeyiga alohida eʼtibor berildi. Ravshan Rajabov jahon tarixi 2015 Qadimgi sharq Yunoniston hamda Rim. F.Boynazarov Qadimgi dunyo tarixi Abdujabbor Kabirov Qadimgi sharq tarixi kabi bir qator adabiyotlarda maʼlumotlar uchraydi.

Tadqiqot metodologiyasi: Matnshunoslik taqqoslash soʻrovnomasi statistika tahlil manbashunoslik.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

DEKABR

ANDIJON, 2024

Tahlil va natijalar: Qadimgi hindiston madaniyati 1. Vedalar. 2. Hinduizm. 3. Buddha dini. 4. Adabiyot. 5. Me'morchilik va san'at. 6. Fan. 1. Vedalar. Hind adabiyoti, tasviriy san'at, me'morchilikda diniy g'oyalar kuchli. Qadimgi hindlarning adabiyot, san'at, fan va falsafada erishgan yutuqlari jahon sivilizatsiyasining tarkibiy qismlaridan birini tashkil etadi. Hind sivilizatsiyasi boshqa mamlakatlar, xalqlar, ayniqsa, Janubiy-Sharqiy Osiyo, Markaziy Osiyo va Uzoq Sharq madaniyati taraqqiyotiga hayotbaxsh ta'sir qildi. Qadimgi Hind adabiyotining mashhur yodgorligi «Rigveda»ning minglab madhiyalari va so'nggi veda adabiyotlari oriylarning diniy e'tiqodlari to'g'risida boy ma'lumot beradi. Oriylar deb O'rta Osiyo, Eron, Afg'oniston va Hindiston hududlarida bir necha ming yillik tarixga ega bo'lgan xalq nazarda tutiladi. Qadimgi Hindistonda xudolar pog'onasi mavjud bo'lmagan. Xudolar samoda yashaydi, hind Oriylari xudolar tasviriga sig'inganlar. Qurbonlik keltirish olovga moy quyish va arpa donini tanlash bilan ifodalangan. Go'yoki, qurbonlik tutun bilan samoga ko'tarilib, xudolar qurbonlikdan to'yib, yerdagi bandalariga ovqat yuboradilar. Dastlab ibodatxonalar qurish rasm bo'lmagan. Kohinlar yopiq tabaqa bo'lgan. So'nggi veda davrida kohinlar alohida toifa – braxmanlar varnasini tashkil qilganlar va boshqa varnalardan mavqelari yuqoriligiga da'vo qilganlar. Uch varnadan birortasining to'la huquqli a'zosi bo'lish uchun faqat bu varnada tug'ilish emas, balki braxman o'qituvchining uyida o'qish va maxsus bag'ishlov marosimlaridan o'tishi lozim edi. Bag'ishlov marosimida bolaga muqaddas ip ilganlar. Bu «ikkinchi tug'ilish» hisoblangan. Shudralarga marosimda ishtirok etishga ruxsat berilmagan. «Ikkinchi tug'ilish» marosimi veda matnlarini o'qish va diniy sirlarni bilish huquqini bergan. [2]

Qadimgi Hindiston sivilizatsiyasi: Ma'lumki boshqa sharq mamlakatlarining tarixi muayyan davrlarga bo'lib o'rganilgani kabi qadimgi Hindiston xalqlari tarixi ham davrlarga bo'lib o'rganiladi. Tarixchi, arxeolog olimlar Janubiy Osiyo, xususan Hindiston tarixini quyidagi davrlarga bo'lib o'rganishini tavsiya etishadi.

1. Eng qadimgi Hind sivilizatsiyasi davri, bu davr m.av. XXIII - XVIII asrlar orasidagi davrni o'z ichiga oladi. Bu davr orasida Hindistonda ilk davlatlar tashkil topadi.
2. Bu davr m.av. II mingyillikni o'z ichiga olib, hududda hind yevropa qabilalarining - oriylarning paydo bo'lish davriga to'g'ri keladi. M.av. II mingyillikning oxiri va m. av. I mingyillikning oralig'idagi Elindiston muqaddas diniy kitoblar - "vedalar"ning paydo bo'lishi tarixiy davridir. Shuni aytish kerakki, tarixchi olimlar ikki bosqichga bo'lib o'rganishni tavsiya etadilar. Uning birinchi ilk bosqichi m. av. X III-IX asrlarni o'z ichiga oladi. Bu ilk bosqichga oriy qabilalari shimoliy Hindiston bo'ylab tarqaladi. Uning so'nggi bosqichi m. av. VIII—VI asrlar orasidagi davr bo'lib, shimoliy Hindiston, xususan, Gang vohasida ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar va shuningdek, hududda bir qancha katta-kichik davlatlarning tashkil topishi bilan belgilanadi.
3. Janubiy Osiyo tarixidagi "Budda davri" nomi bilan mashhur bo'lgan davr m.av. V—III asrlar orasidagi davrni o'z ichiga oladi. «Budda davri» mamlakatda budda dinining kelib chiqishi va tarqalishi bilan belgilanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarix nuqtavi nazaridan qaralsa bu davr yirik davrlashtirishning va shaharlashtirishning va hatto M auriya kabi umumhind davlatining barpo bo'lishi bilan belgilanadi.[3]

Xulosa va takliflar: Qadimgi Hindiston sivilizatsiyasi, tarixiy jihatdan, dunyoning eng qadimiy va boy madaniyatlaridan biridir. Uning tarixi miloddan avvalgi 2500-yillarga borib taqaladi. Ushbu sivilizatsiya Indus vodiysi, ya'ni hozirgi Pokiston va Hindistonning shimoli-g'arbiy qismlarida rivojlangan. Indus vodiysi madaniyati (Harappa madaniyati) o'zining yuqori darajadagi shaharsozlik, sanitariya tizimlari, savdo aloqalari va yozma til bilan ajralib turadi. Xulosa qilib aytganda, qadimgi Hindiston sivilizatsiyasi nafaqat o'z davrining ilg'or

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

DEKABR

ANDIJON, 2024

texnologiya va madaniyatiga ega bo'lgan, balki uning diniy, falsafiy, ilmiy va san'atij merosi hozirgi kunda ham insoniyat uchun muhim ahamiyatga ega.

Qadimgi Hindiston sivilizatsiyasi haqida quyidagi mavzularni o'rganish mumkin: 1. Hindistonning qadimgi madaniyatlari va ularning ijtimoiy tuzilishi. Bu mavzu Hindistonning Indus vodiysi sivilizatsiyasini (Harappa va Mohenjo-Daro) va uning ijtimoiy tizimi, arxitektura va madaniy yutuqlari haqida so'z yuritadi. 2. Hindistonning diniy tizimi va falsafasi: Hinduizm, Buddizm, Jainizm. Bu mavzuda Hindistonning diniy kelib chiqishi, xususan Hinduizm, Buddizm va Jainizmning rivojlanishi va ularning jamiyatdagi o'rni haqida so'z yuritish mumkin. 3. Hindistonning yozma san'ati va adabiyoti. Veda matnlari, Upanishadlar, Mahabharata, Ramayana va boshqa klassik asarlarni o'rganish, shuningdek, qadimgi hind adabiyotining jamiyatga ta'sirini tahlil qilish. 4. Hindistonning ilm-fan va texnologiyadagi yutuqlari. Qadimgi Hindistondagi ilmiy kashfiyotlar (masalan, matematika, astronomiya va tibbiyot) va ularning global madaniyatga qo'shgan hissasi. 5. Indus vodiysi sivilizatsiyasining inqirozi va uning sabablari.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R. Rajabov "Qadimgi dunyo tarixi" 2015
2. F. Boynazarov "Qadimgi dunyo tarixi"
3. A. Kabirov "Qadimgi Sharq tarixi" 2016
4. R. Rajabov "Jahon tarixi" 1-qism
5. I. Avdiyev ""Qadimgi Sharq tarixi" 1964.